

KASB-HUNAR MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA FANINING O‘QITILISHI BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Danayev Toshpo‘lat Nashayevich

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani

2-kasb-hunar maktabining jismoniy tarbiya rahbari

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada mamlakatimizdagi kasb-hunar maktablarida jismoniy tarbiya fanining o‘qitilishi, sog‘lom avlod tarbiyasiga e‘tibor, yaratilgan imkoniyatlar bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.*

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: *Yosh avlodning jismonan sog‘lom, aqlan yetuk bo‘lib o‘sishlarida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati katta ekanligi, Respublikamizda jismoniy tarbiya sportni rivojlantirishga bo‘lgan e‘tibor davlat siyosati darajasida qaralganligini ko‘rsatib berish.*

Natija: *Kasb-hunar maktablarida jismoniy tarbiya fanining o‘qitilishi bo‘yicha jismoniy tarbiya oldida jismoniy madaniyat va sportni xalqimizning hayotiga ko‘proq singdirish, yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning barcha turli-tuman shakllaridan, jumladan, xalq an‘analaridan keng foydalanish, insonlarning sog‘ligini yaxshilashga erishiladi.*

Kalit so‘z: *barkamollik, amaliy tajriba, qobiliyat, qiziqish, tajriba, jismoniy madaniyat, sport, jismoniy mashqlar...*

Barchamizga ayonki, har qanday harakat faoliyati haqida ta’lim berish ma’lum vaqtni talab qiladi. Ta’limning har bir bosqichi o‘zining xususiy va ayrim yetakchi tushunchalari bilan ta’riflanadi. Faqat vazifalar ketma-ket bo‘lsagina o‘qituvchi ta’lim uslubiyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi, shu qatorda ta’lim prinsiplari, tayyorlov va yo‘llanma beruvchi mashqlardan foydalanishi, usullar va uslubiyatlarni maqsadga muvofiq qo‘llay olishi mumkin. Hozirgi kunda ta’lim jarayonining tuzilishini o‘zgarmas deb bo‘lmaydi. Bu jarayon faqat bosqichlar elementlarining tipik aloqasi bo‘lib ta’limning umumiy qonuniyatlarini ifodalaydi va aniq vazifalarga qarab o‘zgarishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ta’limning barcha bosqichlarida o‘qituvchi o‘zlashtirilayotgan faoliyatni o‘quvchilar bilan birga tahlil qilishi, baholashi va xatolarni o‘z vaqtida tuzatib borishi lozim ekanligi xususidagi amaliy ishlaridagi kamchiliklar, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishda salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, xalqning, ayniqsa, yosh avlodning sog‘lig‘ini mustahkamlash O‘zbekistondagi jismoniy madaniyatning asosiy vazifasidan biridir. Istiqloq davrida, ayniqsa, sport va jismoniy tarbiyaga e‘tibor kundan-kunga kuchayib, sport turlarining yosh avlodni tarbiyasida ahamiyati beqiyos. Zero, inson hayotida kerak bo‘ladigan narsalardan biri bu sport. Sport bilan barcha inson shug‘ullanishi shart. Chunki sport bilan shug‘ullangan inson doimo sog‘ bo‘ladi, tetik bo‘ladi, sog‘lom bo‘ladi, axir bekorga ham sport-sog‘lik garovi deyilmagan. Sport bilan shug‘ullansa ba’zi kasalliklar ham yo‘qoladi. Sport kerakli narsa. Ayniqsa, keksalar va yoshlar ertalab badan tarbiya va sport bilan shug‘ullanishi kerak.



Kasb-hunar maktablarida jismoniy tarbiya fanining o‘qitilishida quyidagilarga e‘tibor berish yaxshi natija beradi:

1. O‘quvchilarni mavzularni chuqur o‘zlashtirilishi;
2. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchi-talabalarni nazorat qilishning qulayligi;
3. O‘quvchilarni qisqa vaqt ichida ko‘proq malumot olishi;
4. O‘quvchilarni ko‘nikma va malakalarini maksimal rivojlanishi;
5. Jismoniy mashqlarni mustaqil bajara olishi kabilar.

Kasb-hunar maktablarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitishda bir vaqtda bir nechta masalani hal etish mumkin. Bulardan asosiysi-o‘quvchilarning jismoniy mashqlar, sport o‘yinlarini olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalari rivojlanadi, o‘quvchilar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta‘minlaydi.

Yosh avlodning jismonan sog‘lom, aqlan yetuk bo‘lib o‘sishlarida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati kattadir. Respublikamizda jismoniy tarbiya sportni rivojlantirishga bo‘lgan e‘tibor davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan qonunlar jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga keng yo‘l ochib bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil sentabr oyida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida bolalar sporti inshootlarini barpo etishda zamonaviy tejamkor texnologiyalardan foydalanish masalalariga ham e‘tibor qaratishi lozimligini ta‘kidladi. Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirishga va yosh sportchilarni Xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish, jismoniy salohiyati yuqori, ruhiy tetik sportchilarni tayyorlashga katta e‘tibor ko‘rsatib kelinmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni ikkinchi tashabbusi aynan yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan. Milliy sport turlarining jahon maydoniga chiqishi, uning tan olinishi ajdodlarimizning azaliy orzusi, umidlari ushalganligining yaqqol dalilidir. Jismoniy tarbiya oldida jismoniy madaniyat va sportni xalqimizning hayotiga ko‘proq singdirish, yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning barcha turli-tuman shakllaridan, jumladan, xalq an‘analaridan keng foydalanish, insonlarning sog‘ligini yaxshilash va ularni Ona Vatan. Mudofaasiga tayyorlash va shu singari kata vazifalar turibdi. Xalqimizning milliy o‘yinlari esa ana shu maqsadda keng qo‘llanib kelinayotgan

muhim jismoniy va sport vositalaridan biridir. Shuning uchun xalq milliy harakatli o‘yinlariga e‘tiborni kuchaytirish zaruriyati yanada yaqqol ko‘rinmoqda. Milliy xalq o‘yinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy o‘zgargani, har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmun va qoidalarida o‘zining muayyan izini qoldirgani haqida yuqorida to‘xtalgan edik ba‘zi o‘yinlarning nomi va qoidalari hozircha saqlanib qolgan. Ana shunday o‘yinlardan foydalanishda ularning bolalarga jismoniy ta‘sirdan tashqari tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishini ham nazardan soqit qilmaslik, ijodiy qo‘llashni maqsadga muvofiqlashtirish kerak.

Bundan tashqari, kasb-hunar maktablarida jismoniy tarbiya fanining o‘qitilishida musobaqalar tashkil etish ham samara beradi.

Tayyorgarlik musobaqalari. Ushbu musobaqalarda asosiy vazifa – sportchilarning musobaqalar faoliyatida oqilona texnika va taktikani takomillashtirish, organizmning turli xil tizimlarini musobaqalarga tegishli yuklamalarga moslashtirish va boshqalardan tashkil topgan. Bunda sportchilarning mashq qilish darajasi oshiriladi, ularda musobaqalarga bo‘lgan tajriba va ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Nazorat musobaqalari sportchilarning tayyorgarlik darajasini baholash imkonini beradi. Bu musobaqalar davomida sportchilarning texnika, taktikani o‘zlashtirish darajasi, harakatlarga oid sifatlarning rivojlanish darajasi, musobaqalar yuklamalarga nisbatan psixik jihatdan tayyorlik darajasi tekshiriladi. Nazorat musobaqalarining natijalari tayyorgarlik jarayoni tuzilishiga o‘zgartirishlar kiritish imkonini beradi.

Bellashuv uchrashuvlari ko‘rinishidagi musobaqalarda esa shahar, Respublika miqyosidagi sport jamiyatlari, jismoniy tarbiya jamoalari to‘garaklari, sportchilar guruhlari o‘rtasida mahoratni takomillashtirish, sportchilarda vatanparvarlik va o‘z jamoasiga, shahar va o‘z respublikasiga sodiqlikni tarbiyalash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Hududiy miqyosdagi musobaqalar jismoniy tarbiya va sport ishlari qo‘mitasi tomonidan tashkil qilinib, shahar, tuman, viloyat, Respublika miqyosida boksning holatini va rivojlanishini tekshirish maqsadlarida, KSJ va idoralarga mansubligidan qat‘i nazar tegishli hududda istiqomat qiluvchi alohida sportchilar va sport jamoalarining ishtirokini hisobga olgan holatda o‘tkaziladi.



Xullas, sport har bir davlat boshlig‘i, albatta, yetakchi sarkarda bo‘lishi ham shart hisoblangan. Tarixda o‘chmas iz qoldirgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Boburlar shunday hukmdorlar edilar. Shuni anglagan holda yurtimizdagi kasb-hunar maktablarida jismoniy tarbiya fanining o‘qitilishiga e‘tibor berish biz o‘qituvchilar zimmasiga ulkan mas‘uliyatni yuklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYORLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

2. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma.

3. A.A. Ikromov Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi

4. Internet saytlari: Ziyonet.uz, kitob.uz, multemidiya.uz